



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025


- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 19 sahifa,
1-oktyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapiirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

*Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361



MUNDARIJA

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KAMAYTIRISHDA PSIXOKORREKSIYA DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA IJTIMOY AHAMIYATI.....	8
Tursunova Ozoda Abdullayevna	
O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: FUQAROLIK JAMIYATI.....	14
Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich	
TALABALARDA KASBIY MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	18
Ayakulov Ulug'bek Abdug'affor o'g'li	
TALABALARDA LIDERLIK XUSUSIYATINING NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI	22
Sobitova Shaxnoza Shokir qizi	
O'SMIRLARDA TURLI XIL YOT G'OYALARGA BERILISHNING AYRIM IJTIMOY-PSIXOLOGIK MASALALARI	27
Tulyaganova G.O.	



O'SMIRLARDA TURLI XIL YOT G'OYALARGA BERILISHNING AYRIM IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MASALALARI

Tulyaganova G.O.

Alfraganus universiteti

"Psixologiya" kafedrası dotsenti v.b.

Annotatsiya: Maqolada yoshlarning turli xil yot g'oyalarga berilib ketishining ijtimoiy-psixologik omillari tahlil qilingan. Xususan, ularning individual-psixologik xususiyatlari, ma'lumotlilik darajasi, oilaviy muhit, tengdoshlar guruhi hamda ommaviy axborot vositalarining ta'siri ko'rib chiqilgan. Shuningdek, yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan muhofaza qilishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: yot g'oyalar, yot g'oyalarga berilish, ommaviy axborot vositalari, mafkuraviy xurujlar, yot g'oyalardan muhofaza qilish omillari, destruktiv xulq.

Abstract: The article analyzes the socio-psychological factors contributing to young people's involvement in various alien ideas. In particular, it examines their individual psychological characteristics, educational level, the influence of the family environment, peer groups, and the media. Furthermore, the article highlights the socio-psychological mechanisms of preventing youth from being influenced by foreign ideas.

Key words: alien ideas, involvement in alien ideas, mass media, ideological attacks, protective factors against foreign influence, destructive behavior.

Аннотация: В статье рассматриваются социально-психологические факторы вовлечённости молодежи в различные чуждые идеи. В частности, анализируются их индивидуально-психологические особенности, уровень образования, влияние семейной среды, группы сверстников и средств массовой информации. Кроме того, освещаются социально-психологические механизмы профилактики вовлечённости молодежи в чуждые идеи.

Ключевые слова: чуждые идеи, вовлечённость в чуждые идеи, средства массовой информации, идеологические атаки, факторы защиты от влияния чуждых идей, деструктивное поведение.

KIRISH

Ma'lumki, ko'plab mafkuraviy xurujlar va yot g'oyalar turli shakl va yo'llar bilan mamlakatimiz ijtimoiy hayotiga kirib kelmoqda hamda yoshlarni har tomonlama ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash jarayonlariga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bunday tahdidlar, tabiiyki, yoshlarning ongiga ta'sir etib, ularning mafkuraviy immuniteti, ijtimoiy barqarorligi va shaxsiy qarashlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, mazkur hodisalarni chuqur o'rganish, psixologik tahlilini amalga oshirish, yoshlarni turli xil mafkuraviy tahdidlar va yot g'oyalar ta'siridan muhofaza qilishning samarali omil va mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi davrda dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida ham bu masalaning naqadar muhimligi alohida ta'kidlangan. Jumladan, davlat rahbari shunday deydilar:

"Bugun qancha yoshlar soxta aldovlarga uchib, o'z umrini xazon qilayotganini o'ylab, to'g'risi, tunlari uxlamasdan chiqaman. O'zingiz ayting, aziz birodarlar, bu achchiq haqiqat yuragimizga sanjar bo'lib sanchilishi kerak emasmi? Axir kechagina shu yoshlar o'zimizning qora ko'zlarimiz, birimizning mahalladoshimiz, birimizning o'g'limiz, birimizning qizimiz yoki jiyanimiz edi-ku. Ular qachon adashdi, qachon noto'g'ri yo'lga kirib ketdi? Biz nega g'aflatda qoldik? Qachon, qaerda xatoga yo'l qo'ydik? Farzandlarimiz qachon begonalarning qo'lga o'tib ketdi? Nima sababdan ular o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi chiqqan yot g'oyalarning qurboniga aylandilar? Bugun bunday mudhish balo-qazoning oldini olmasak, bor kuchimizni shunga safarbar etmasak, ertaga kech bo'ladi" [1].

Mazkur fikrlar, bir tomondan, yoshlarni yot g'oyalardan himoya qilish masalasining dolzarbligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, jamiyat, oila va ta'lim tizimi zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklashini ham anglatadi. Shu

sababli, yoshlarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularni ongli ravishda yot g'oyalardan himoya qilish va mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologiya fanida diniy-ekstremistik g'oyalar ta'siriga tushgan hamda terrorchilik harakatlarini sodir etuvchi shaxslarning shaxsiy-psixologik xususiyatlari, ularni bunday harakatlarga undovchi motiv va sabablar haqida qator ilmiy adabiyotlar yaratilgan (Kruglanski, 2014; Borum, 2011; Post, 2005). Tadqiqotlarda ekstremistik faoliyatga moyil shaxslar odatda yuqori darajadagi kognitiv rigidlik, ijtimoiy adolatsizlik hissi, identifikatsiya inqirozi, tashqi guruhlariga nisbatan salbiy stereotiplar va kuchli affektiv zo'riqish kabi xususiyatlarga ega bo'lishi qayd etilgan.

Mazkur nazariy va amaliy izlanishlardan kelib chiqib, ushbu maqolada yoshlarning turli xil yot g'oyalarga berilishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, ularning shart-sharoitlari va oqibatlarini, shuningdek, terror va ekstremizm psixologiyasiga oid ayrim mulohazalar bayon etiladi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, destruktiv mazmundagi axborotlar bilan muntazam aloqada bo'lish shaxs yoki jamoaning ijtimoiy-psixologik dezadaptatsiyalanishiga, ijtimoiylashuvning buzilishiga, hatto psixosomatik buzilishlarning rivojlanishiga olib kelishi ehtimoli mavjud (Bandura, 2004; Qodirova, 2020). Shu nuqtai nazardan, destruktiv xatti-harakatlarning oldini olish uchun psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish va mos ravishda himoya xulqini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi [3].

Ma'lumki, dunyo miqyosida kechayotgan siyosiy jarayonlar fonida yoshlar orasida ekstremizm va terrorizm ko'lamining ortib borayotgani kuzatilmoqda. Ushbu holatni tahlil etishda yoshlarning xavfli guruh sifatida ajralib chiqishi diqqatga sazovordir. Psixologik nuqtai nazardan, yoshlarga xos bo'lgan maksimalizm va nigilizm, radikalizm va murosasizlik, tavakkalchilik va shoshqaloqlik, beqarorlik, guruhbozlik kabi sifatlar qulay vaziyatlarda aksilijtimoiy faollikni ishga tushiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'lishi mumkin (Silke, 2008; Karshiev, 2021).

Shu boisdan, yoshlarning yot g'oyalarga berilishini cheklashda ularning shaxsiy-psixologik barqarorligini mustahkamlash, mafkuraviy immunitetni rivojlantirish, ijtimoiy adolat va ishonch muhitini ta'minlash, oilaviy va ta'limiy muhitni sog'lomlashtirish asosiy omillar sifatida ko'riladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda turli metodlardan foydalanildi. Avvalo, nazariy metodlar doirasida mavzuga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlar kontent-analiz qilindi hamda ekstremizm psixologiyasi bo'yicha turli nazariy yondashuvlar qiyosiy tahlil etildi. Empirik metodlar qatorida so'rovnoma va psixodagnostik testlar qo'llanildi. Jumladan, yoshlarning informatsion ta'sirchanlik darajasini aniqlash uchun Likert shkalasi asosida tuzilgan maxsus anketa, shaxsiy qadriyatlar tizimini baholash uchun Rokich qadriyatlar testi, agressiv reaksiya shakllarini o'rganish uchun Rosenzweigning frustratsiya testi hamda ijtimoiy moslashuv darajasini o'lchash uchun Rodgers va Deymondning ijtimoiy moslashuv testi ishlatildi. Shuningdek, yoshlar bilan chuqur suhbatlar va intervyular o'tkazildi, ularning ijtimoiy faoliyati jarayonida kuzatuv metodidan foydalanildi.

O'smirlar va yoshlar aholining eng ta'sirga beriluvchan qatlami sifatida turli nizolar, har xil diniy-ekstremistik, terrorchilik yo'nalishidagi tashkilotlarning faol ishtirokchilari, a'zolari bo'lishi ehtimoli kattadir. Butun dunyoda yoshlarning ekstremistik harakatlarga moyilligi kuchayganligi mazkur holatning diqqat bilan o'rganilishini, tadqiq etilishini talab etmoqda. Ayrim yoshlarning istiqbolni aniq tasavvur eta olmasligi ularda o'z kelajagiga nisbatan hadik, xavotir tuyg'usini uyg'otmoqda va afsuski, bu tuyg'u doim ham maqsadga muvofiq usulda bartaraf etilmayapti.

TAHLIL VA NATIJALAR

Globalashuv jarayoni jadallashib borayotgan hozirgi davrda diniy ekstremizm va terrorizm butun dunyo mamlakatlari xavfsizligi va barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda. Afsuski, ekstremistik harakatlarda bevosita ishtirok etayotganlarning asosiy qismini ongiga maxsus texnologiyalar yordamida ta'sir ko'rsatilgan, ruhiy jihatdan manipulyatsiya qilingan yoshlar tashkil etadi. Ular o'zlari mafkuraviy rahnamolar va targ'ibotchilarning qo'lidagi oddiy vosita — "psixologik qo'g'irchoq" ekanliklarini anglab yetmaydilar.

Shuni alohida qayd etish kerakki, terrorchilik tashkilotlari a'zolari orasida nafaqat ijtimoiy jihatdan himoyasiz qatlam vakillari, balki moddiy jihatdan to'q, barcha sharoitga ega oilalar farzandlari ham uchrab turadi. Bu esa asosiy sababni faqat iqtisodiy omillardan izlash biryozlama ekanini ko'rsatadi. Zamonaviy terrorizmning demografik xususiyatlaridan yana biri — uning "yashirin" va "feminizatsiyalashgan" ko'rinishga o'tganligidir.



Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, terrorchilar va ekstremistlarning katta qismini 20–30 yosh oralig'idagi shaxslar tashkil etadi, 50 yoshdan oshganlar esa asosan mafkurachilar yoki rahbarlar sifatida faoliyat yuritadi. Bu hol tasodifiy emas. Psixologik nuqtai nazardan, yoshlarga xos qiziqqonlik, xavf-xatar romantikasi, o'zini namoyon etishga intilish, tanqidiy fikrlash va mafkuraviy immunitetning yetarlicha shakllanmaganligi kabi omillar muayyan vaziyatlarda xavfli xatti-harakatlarni yuzaga chiqaruvchi mexanizm bo'lib xizmat qiladi (Kruglanski, 2014; Silke, 2008).

Ko'plab ekstremistik guruhlarda yoshlar ongiga ta'sir qilish uchun maxsus psixologik ishlov berish usullari qo'llaniladi. Jumladan, "shahidlik" aktlari yoki terrorchilik hujumlarining videoyozuvlari diniy matnlardan noto'g'ri olingan iqtiboslar bilan birga namoyish qilinadi. Ba'zan a'zolari tayyorlash jarayonida narkotik moddalar yoki psixotrop vositalar qo'llanishi ham kuzatiladi (Post, 2005). Bu jarayonlar yoshlarni haqiqatdan chalg'itib, noto'g'ri e'tiqodga ishonch hosil qilishga xizmat qiladi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, yot g'oyalar ta'siriga tushgan shaxslar tashqi qiyofasidan oddiy insonlardan ajralib turmaydi, ular bizning jamiyatimiz a'zolari bo'lishiga qaramay, noturg'un psixik tuzilishi sababli destruktiv g'oyalarga tezda moyil bo'ladi. Bu shaxslarning umumiy xususiyatlariga qo'rquv, ijtimoiy noaniqlik va o'zini namoyon eta olmaslik kiradi. Shu sababli ular radikal g'oyalarga qo'shilgach, o'zlarini "mard", "fidoyi", "haqiqat yo'lida kurashuvchi" sifatida ko'rsatishga intiladilar. Aslida esa ularning ichki olami qo'rquv, xavotir va o'ziga ishonchsizlik bilan to'la bo'ladi.

Odatda diniy-ekstremistik guruhlariga ijtimoiy muammolarni boshdan kechirayotgan shaxslar — noto'liq oilalarda voyaga yetganlar, vaqtincha ishsiz yoki kriminal faoliyatga moyil shaxslarning farzandlari jalb qilinishi kuzatiladi (Borum, 2011). Shu boisdan yoshlarni yot g'oyalardan himoya qilishda oilaning tarbiyaviy vazifasini kuchaytirish, mahallalarda yoshlarni foydali mehnat va ijtimoiy faoliyatga jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik nuqtai nazardan, ayrim vaziyatlarda shaxsda paydo bo'ladigan alamzadalik va ijtimoiy adolatsizlik hissi uni asosial guruhlariga qo'shilishga undaydi. Bunday shaxslar odatda identifikatsiya inqirozini boshdan kechiradi va o'zligini namoyon etish uchun ekstremistik guruhlarini "alternativ makon" sifatida qabul qiladi (Bandura, 2004). Shu sababli yoshlar bilan ishlashda ularning shaxsiy va fuqarolik identifikatsiyasini shakllantirish, ijtimoiy rollarni maqsadga muvofiq yo'naltirish alohida ahamiyatga ega.

Psixologiya fani namoyish etganidek, tashqi muhit va shaxsning ichki dunyosi bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Shaxs o'zini anglash jarayonida to'g'ri yo'l ko'rsatadigan, maslahat bera oladigan va qaror qabul qilishda yordam bera oladigan ijtimoiy tayanchga muhtoj bo'ladi. Agar yoshlar ta'lim olish, dunyoqarashni kengaytirish, yangi tajribalarni o'zlashtirish imkoniyatidan mahrum bo'lsa, ularning shaxs sifatida shakllanishi izdan chiqishi mumkin.

Terrorchilik guruhlarini a'zolarining ruhiy tuzilishida umumiy belgilar kuzatiladi. Ular ko'pincha paranoidal kayfiyatdagi, eksternal nazorat lokusiga ega shaxslardir. Bu shaxslar muvaffaqiyatsizlik sababini ichki emas, balki tashqi omillardan izlaydi. Destruktiv guruhlarida esa dushman timsoli muqarrar bo'lib, bu hukumat, boshqa diniy guruh yoki shaxs sifatida talqin qilinishi mumkin (Post, 2005). Shaxs do'st-dushman dikotomiyasi orqali o'zini himoya qiladi va bu ularning birdamligini kuchaytiradi. Shu sababli bunday guruhlariga qarshi axborot kurashi olib borishda ularning jipslashuv mexanizmlarini hisobga olish zarur.

Yoshlarning yot g'oyalarga berilishining oldini olish borasida olib borilgan tahlillar quyidagi yo'nalishlarda ishlarni samarali deb hisoblashga imkon beradi:

diniy-ekstremistik oqimlarning xavfi haqida ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlarida mutaxassislar ishtirokida davra suhbatlari, seminar va konferensiyalar tashkil etish;

turli mafkura va oqimlarning xavflilik darajasini baholay oladigan mutaxassislardan iborat ekspert guruhlarini shakllantirish;

oilada va ta'lim muassasalarida yoshlarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish, axborot-psixologik xavfsizlikni mustahkamlash hamda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni destruktiv oqimlar, diniy-ekstremistik guruhlar va buzg'unchi g'oyalar ta'siridan himoya qilish masalasi nafaqat ijtimoiy-pedagogik, balki davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu boradagi ishlarni susaytirmaslik, balki izchil, tizimli va kompleks tarzda amalga oshirish zarur. Ayniqsa, yoshlarning ongida vatanparvarlik ruhini shakllantirish, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, tanqidiy tafakkur va axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish keng ilmiy jamoatchilik, ta'lim tizimi, mahalla faollari, ota-onalar hamda har bir ongli fuqaroning birgalikdagi hamkorlik faoliyatini talab etadi. Zero, yoshlarni yot g'oyalardan himoya qilish va ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash ijtimoiy barqarorlik, milliy xavfsizlik va taraqqiyotning eng muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqidan. "Ma'rifat" gazetasi, 2017 yil 1-iyun, №52
2. Volkov E.N. Metodi verbovki i kontrolya soznaniya v destruktivnix kultax // Jurnal prakticheskogo psixologa. — M., 1996. № 3.
3. Borum, R. (2011). Radicalization into Violent Extremism I: A Review of Social Science Theories. Journal of Strategic Security, 4(4), 7–36.
4. Kruglanski, A.W. et al. (2014). The Psychology of Radicalization and Deradicalization. Political Psychology, 35, 69–93.
5. Xaitov A., Qodirov B., Qodirova A. Shaxsda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Respublika ilmiy anjuman materiallari to'plami. –T. 2012. –B 32-34.
6. Qodirov U. Yoshlarni destruktiv ta'sirlardan himoyalashning psixologik jihatlari. Toshkent, "Fan va texnologiyalar", 2013, 246 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.